

ONOMASTIKA RIVOJLANISHINING BOSQICHLARI VA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI O`RNI

Buxoro viloyati Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

Ibotova Munavvar Oybek qizi

munavvaribotova2710@gmail.com

Ma`lumki, yer yuzida mavjud yaratiqlarning barchasiga o`ziga xos nomlanish tarixi va sabablariga egadir. Ana shu nomlarning xalq lisonida saqlanib qolishi ma`lum jihatlar evaziga yuzaga keladi. Ta`kidlash lozimki, har qaysi obyekt yoki subyektga berilgan nom ba`zi xususiyatlarga tayangan holda mavjuddir. Biz siz bilan tadqiq qilmoqchi bo`lgan ushbu maqolada elat, xalq, ma`lum etnik guruhlarga berilgan nomlar hamda ularning onomastik tahlili yuzasidan so`z yuritamiz. O`zbek tilida har bir so`zlar guruhining o`ziga xos nomlanish tizimi mavjud. Jumladan, o`simliklar tilshunoslikda fitonim deb nomlansa, jonivorlarga berilgan nomlar zoonym atamasi bilan qayd etiladi. Xuddi shu kabi xalq, millat, qabila, urug` , bir so`z bilan aytganda, etnik uyushmalarning o`ziga xos nomlanishi mavjud bo`lib, ular lingvistikada etnonimlar deb yuritiladi. Etnonim termini grekcha “etno va oputa” so`zlari yig`indisidantashkil topgan bo`lib, “qabila va nom” integratsiyaviy ma`nosini ifodalab keladi. XX asrning 60-70-yillarida o`zbek tilshunosligida bir qator ilmiy yo`nalishlar paydo bo`ldi. Masalan, eksperimental fonetika, fonologiya, morfonologiya, frazeologiya, uslubshunoslik, nutq madaniyati, ijtimoiy tilshunoslik (sotsiolingvistika), areal lingvistika, lingvostatistika kabilar. O`zbek onomastikasi ham o`sha davrlarda vujudga kelgan tilshunoslikning yangi sohalaridan biri sanaladi. O`zbek onomastikasi (nomshunosligi) o`tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikning eng rivojlangan sohalaridan biriga aylandi. O`zbek nomshunosligi bo`yicha olib borilgan keng ko`lamli tadqiqotlar o`zbek onomastikasi sohasini bir qator monografiyalar, izohli lug`atlar, ko`p sonli ilmiy maqolalar, nomzodlik va doktorlik disertatsiyalari bilan

boyitdi. “Onomastika” deb nomlanuvchi fanning asosiy vazifasi mazkur sohaning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, onomastik birliklarni o‘rganish metodlari va boshqalar haqida talabalarga zarur tushuncha va ma’ lumotni berishdan iboratdir. Antroponomilar (yun antropo-kishi opuna-nom) kishi nomlarini(ism, familiya, sharif, laqab, taxallus) ularning tarqalganligini, kelib chiqishi, jamiyatda amalda qo‘llanilishi haqida rivojlanishni o‘rganadi. “Onomastika” atoqli otlarni nomlashda bir qancha guruhlarga bo‘linadi: Antropom-kishi nomlari (ism, familiya, sharif, taxallus, laqab); toponimlar-joy nomlar (mahalla, guzar, ko‘cha nomlari); gidronimlar-suv havzalari(ko‘l daryo,dengiz) kabi bir qancha onomastik birliklarni o‘z ichiga oladi. Tilshunoslikka yangi soha bo‘lib kirgan onomastika bo‘limi XX asrning 60-70-yillarda rivojlangan bo‘lib, bir qancha olimlar tomonidan har bir atoqli otni alohida ko‘lamlar bilan o‘rganish metodlari yo‘lga qo‘yildi. Xususan, toponimika, antroponomika, mifonimika, kosmonimika, tionimika, zoonimika, ornitonimlar kabi bo‘limlari bilan tasnif etilgan. Bu soha bo‘yicha bir qancha shu jumladan, rus tilshuosi olimlar E.T. Smirov, N. S. Likoshin , A. Samayevichlar o‘zbekcha ismlarni to‘plash va ularni rus tiliga transletiratsiyada ifodalash masalalari bo‘yicha, A.I. Papov”Toponimika-tarixiy fan” nomli asar, o‘zbek tilshunoslardan ilmiy ishlar olib borgan tilshunos olimlar E. Begmatov, T. Nafasov, B. Yo‘ldoshev, S. Qorayev, H. Hasanov, A.Xo‘jayev va boshqalar.

Onomastika (yunoncha onomastikos—ismga bog‘liq,opot—ism)—1)tilshunoslikda otlar, ularning tarixi, tilda qo‘llanilishini o‘rganadi.

2). Onomiya turli xos nomlarga(antroponimiya, toponimika,etnonimiya va boshqalar)bo‘linadi.

“Onomastika” faniga qiziqish va ehtiyoj xorijiy mamlakatlarda nihoyatda kuchli. Ayniqsa, Rossiyada qator monografiya va darsliklar nashr qilingan. Rus tilida onomastikaning turli masalalariga bag‘ishlangan qator to‘plamlar ham nashr qilindi. “Ономастика” (Moskva, 1969), “Восточнославянская ономастика” (Moskva, 1972), “Этнография имён” (Moskva, 1971), “Ономастика и норма” (Moskva, 1976), “Историческая ономастика” (Moskva, 1977), “Ономастика Средней Азии” (Moskva,

1978) va boshqalar. Bu sohaga qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Onomastikaning keng taraqqiy qilib borishi uning turli mustaqil bo‘limlarga ajralishiga olib keldi. Jumladan, antroponimika, toponimika, zoonimika, gidronimika va h. k.ga bo‘lib o‘rganishga kirishildi. Bular orasida o‘zbek tilshunosligida keng va atroficha o‘rganilgani o‘zbek tili toponimikasi desak, xato qilmaymiz. Turkologiyada ham onomastika masalalari tadqiqiga bag‘ishdangan qator ishlar mavjud. Bu sohada akademik V.V.Radlov, V.A.Gordlevskiy, N.A.Baskakov, G‘.F.Sattorov, T.Jonuzoqov va boshqa olimlar samarali ish olib borganlar. Jumladan, N.A.Baskakov hozirgi kunda rus tilida faol qo‘llanilayotgan yuzdan ortiq kishi nomlarining kelib chiqishi jihatidan turkiy ekanligini isbotlab berdi.¹ Respublikamizda ham bu soha fanini yanada rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda. Bunga mustaqillikka erishilgandan so‘ng, 1991-yilda Xiva shahrida o‘tkazilgan xalqaro onomastik ilmiy-amaliy konferensiyasini misol qilib keltirish mumkin. Hozirgi kunda Respublikamizning ayrim oliy o‘quv yurtlarida “O‘zbek onomastikasi”, “O‘zbek onomastikasi masalalari”, “O‘zbekiston toponimiyasi” maxsus kurslari o‘qitilmoqda. Professor T.Nafasov tomonidan «O‘zbekiston toponimikasi» bo‘yicha o‘quv dasturi tuzilgan. Ammo bu fan bo‘yicha alohida darslik nashr qilinmadı.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бегматов, Э. Этнонимларнинг тил ономастик тизимига муносабати // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. 2007. № 2. Урганч.
2. Дусимов, З. Хоразм топонимлари. Тошкент : Фан, 1985; Нафасов, Т. Узбекистон топонимларининг изоҳли лугати. Тошкент : У^итувчи, 1988, ^аш^адаре номномаси. Карши, 2010
3. “Manas” ensiklopediyasi / Davlat tili va ensiklopediya markazi. Bishkek: Qirg‘iz ensiklopediyasi bosh tahririyyati, - 1995. 1-jild. - 440 b. ISBN -5-89750-013-4

¹ Басқаков Н.А. Русские фамилии тюркского происхождения //Антропонимика. –М., 1970. –С. 98-103.